

**Gulmira AZAMATOVA,**  
*Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: g.azamatova1987@bk.ru*  
*Tel: (94) 573 83 78*

*O'zMU professori, t.f.d X.E.Yunusova taqrizi asosida*

## REFORMS CONCERNING LABOR MIGRATION OF WOMEN IN UZBEKISTAN'S NEW DEVELOPMENT STAGE

Annotation

This article describes labor migration, which has become important in the current globalization process, and the characteristics of women's labor migration in New Uzbekistan. At the new stage of Uzbekistan's development, it is analyzed that the attitude towards the citizens working abroad has fundamentally changed, that a new system of studying and solving the problems and needs of labor migrants has been introduced.

**Key words:** migration, labor migration, women, New Uzbekistan, population employment, external migration.

## РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ЖЕНЩИН НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье описывается трудовая миграция, ставшая важной в современном процессе глобализации, и особенности женской трудовой миграции в Новом Узбекистане. На новом этапе развития Узбекистана проанализировано, что радикально изменилось отношение к гражданам, работающим за рубежом, внедрена новая система изучения и решения проблем и потребностей трудовых мигрантов.

**Ключевые слова:** миграция, трудовая миграция, женщины, Новый Узбекистан, занятость населения, внешняя миграция.

## O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA XOTIN-QIZLAR MEHNAT MIGRATSIYASI BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi globallashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan mehnat migratsiyasi va Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasi xususiyatlari yoritilgan. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarganligi, mehnat migrantlarining muammo va ehtiyojlarini o'rganish, hal qilishning yangi tizimi joriy qilinganligi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, mehnat migratsiyasi, xotin-qizlar, Yangi O'zbekiston, aholi bandligi, tashqi migratsiya.

**Kirish.** Dunyo davlatlaridagi integratsiya jarayonlari, mintaqalararo notinchlik, ekologik ofat kabi bir qator muammolar tufayli, bugungi kunga kelib ham dunyo davlatlari bo'yicha migratsiya oqimi kuchayib bormoqda. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Unda aholining mehnatga layoqatli qatlami moddiy ehtiyoj tufayli bir davlatdan boshqasiga doimiy yoki vaqtinchalik ish topish maqsadida ko'chib boradi. Butun dunyoda mehnat migrantlarining soni ortib borayotganligining asosiy sabablari bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning hayot kechirishi uchun iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ham migratsiya jarayoni, jumladan, xotin-qizlar mehnat migratsiyasining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari saqlanib qoldi. Muammo va qiyinchiliklar bilan birgalikda turli iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarida qator o'zgarishlar yuzaga keldi. Mehnat migrantlarining asosiy qismi 80,9 foizga teng bo'ldi. Ayol migrantlari esa 19,1 foizga teng bo'lib, 2016-yilga kelib 3,7 ga ortdi[1].

2016-yil oxirida O'zbekistonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar bilan hukumat mamlakatdagi migratsiya siyosatini har taraflama qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish, hal qilishning yangi tizimi joriy qilindi. Chunki migratsiya oqimini to'xtatib bo'lmasligi bois so'nggi yillarda xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan mehnat migrantlarining, xususan, xotin-qizlarning qonuniy asosda mehnat qilish, ta'lim olish, tibbiy xizmat va ijtimoiy sug'urtadan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun mamlakat mavjud imkoniyatlaridan foydalandi.

**Tahlil va natijalar.** 2017-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda ish topish ilinjida 1 mln. 630 mingdan ortiq fuqarolar mamlakatni tark etdi. Ulardan 1 millionga yaqini, ya'ni 944 ming 328 nafari Rossiya Federatsiyasiga, 626 ming 791 nafari Qozog'istonga, qolganlari Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarga chiqib ketdi[3].

Bu o'z navbatida, nafaqat fuqarolarning o'zini, balki O'zbekiston hukumatini ham yanada qat'iy qadam bilan chora-tadbirlar ko'rishga, migrantlarni, ayniqsa, eng avvalo ayolarni himoya qilishga, real salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar ishlab chiqilishini talab etdi.

Migratsiya jarayonida xotin-qizlarning xatti-harakatiga baho berishda ularning tarkibi, yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqligini o'rganish ham muhim masala hisoblandi. Bunda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ularni ijtimoiy himoyalash tizimini yanada mustahkamlashning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini yanada oshirish, har taraflama davlat va jamiyatning tez rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirishda muhim yo'nalishlarni bajarish maqsadida ishlab chiqildi va amalga oshirildi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasining bir necha muhim masalalari bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shuningdek ularning ichki va tashqi mehnat migratsiyadagi ishtirokini tartibga solish muhim yo'nalish qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-son qarori[4] bilan tasdiqlangan "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-son Konvensiyasi[5] ni qabul qilish masalasini o'rganilib

chiqishi belgilandi. Ushbu Konvensiya mehnat migrantlarining mehnat faoliyati, ularning mol-mulki hamda oila a'zolari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini qamrab olgan.

2018-yilda xotin-qizlar o'rtasida noqonuniy mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini oldini olish, noqonuniy migratsiya jabrdiydalarini reabilitatsiya qilish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, ish bilan ta'minlash, jamoatchilik ishlariga faol jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar qo'mitasi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi, tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan hamkorlik rejasi qabul qilindi, barcha viloyatlarda ishchi guruhlari tashkil etildi. Xususan, 2018-yilda Qoraqalpog'istonda 20 mingga yaqin ishsiz ayol aniqlangan va ulardan 18 ming 184 nafar ayollar ish bilan ta'minlandi[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-son Qarori[7] ijrosi O'zbekiston Respublikasi tashqi mehnat migratsiya faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

2018-yil 16-oktabrdagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni[8] mamlakatda xususiy bandlik agentliklarining faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soldi. Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya va Birlashgan Arab Amirligi o'rtasida mehnat migratsiyasi bo'yicha hukumatlararo bitimlar tuzildi, chet elda ishlayotgan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida alohida jamg'arma tashkil etildi.

2018-yil 12-dekabrda O'zbekistonda mehnat migrantlari ijtimoiy manfaatlarining muhofaza qilish maqsadida Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasi ratifikatsiya qilindi. Shu asnoda, 2019-yil O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Bu esa O'zbekistonni Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 173 ta a'zosi va 8 ta kuzatuvchi davlatlari safiga kirishini ta'minladi. 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son Prezident qarori[9] bo'yicha chet elda mehnat qilayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, migrantlarning huquqi, qonuniy manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi, mehnat migrantlarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi. Xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish uchun o'ziga xos tizim joriy qilindi. Shu bilan birga, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning reintegratsiyasini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishda nazarda tutilgan chora-tadbirlar qabul qilish talab etildi[10]. Shunga muvofiq, mehnat migrantlarini xorijga ketishidan oldin tayyorlash, kasbga, tilga o'qitish, ularga munosib ish o'rni topib berish, xorijga ketganidan keyin ularni moddiy qo'llab-quvvatlash, qaytib kelgach esa yashab turgan joylarida bandligini ta'minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish va rag'batlantirish kabi bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqsad xorijda ishlayotgan fuqarolar mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga moddiy va boshqa yordamlarni ko'rsatishdan iborat bo'ldi.

Migratsiya faqat ishchi kuchi migratsiyasidan iborat emas. Qochoqlar, boshpana so'rovchilar va surgun qilinganlar migratsiya oqimining bir qismi hisoblanadi. Mehnatkash migrantlar, qochoqlar, siyosiy boshpana so'raganlar kabi boshqa toifalardan farq qilgan holda, irqi, dini, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi tufayli ta'qib ostida bo'lmaydigan hamda o'z mamlakatidagiga ko'ra ko'proq haq olish yoki umuman haq olish maqsadida o'zga mamlakatda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs mehnatkash-migrant hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining yil sayin o'sib borishi xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, mehnat resurslarining tashqi migratsiyasini kuchaytirdi. 2020-yilda turli maqsadda uchun chet elga ketayotgan O'zbekistonliklarning 58% (8 mln. kishi)ni esa erkaklar, 42% (5,8 mln. kishi)ni ayollar tashkil etdi[11]. Oxirgi 5 yil ichida ish topish ilinjidagi mehnat migratsiyasining geografiyasi o'zgardi, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Isroil, Birlashgan Arab Amirligi va Qozog'istonga ishchilar oqimi tobora o'sib borayotgani kuzatildi[12]. 2021-yilda Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Agentligining qo'shimcha 24 ta vakolatxonasi ta'sis etildi. Jami 94 mingga yaqin xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar "Ishga marhamat" monomarkazi, kasb-hunarga o'qitish markazlari va qisqa muddatli kurslarda o'qitildi. 31 ta xorijiy davlatning 359 ta ish beruvchisi va kadrlar agentligi bilan tuzilgan shartnomalar asosida 135 ming 504 fuqaro xorijga ishlashga yuborildi[13].

2021-yilda 502 ming fuqaro xorijdan qaytdi. Ularning 202 ming nafari ayollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil yakuniga kelib 2,5 ming nafar ayol "Tadbirkor migrant" loyihasi doirasida o'qitildi, hududlarda ular bo'yicha monitoring o'tkazib borildi. Shu 2,5 ming ayoldan 102 nafari tadbirkorlikni boshlab yangi ish o'rinlari yaratildi[14]. 2021-yilning 6 oyi mobaynida 192,2 ming ishsiz xotin-qizlarga bandlik xizmatlari ko'rsatildi. To'rt oy davomida 8,3 ming ehtiyojmand xotin-qizlarning ishga joylashishiga ko'maklashildi. 41,2 ming nafar ish bilan ta'minlanmagan xotin-qizlar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan va ularning maoshi uchun 35,2 milliard so'm mablag' yo'naltirildi[15].

**Xulosa va takliflar.** Xotin-qizlar o'rtasida ichki migratsiyada ishsizlik muammosining ijtimoiy salbiy oqibatlaridan biri mardikorlik, ya'ni bir martalik yollanma mehnat faoliyatida kuzatilib, tahlil etilganda malaka darajasining past ekanligi yoki asosan umumiy o'rta ma'lumotlilik, biror kasb-hunarga ega bo'lmaslik, ishsizlik, turmushidan ajralgani va boquvchisining yo'qligi, turar-joyga ega emasligi, sha'riy nikohlar, er-xotin munosabatlaridagi nosog'lom ma'naviy muhit kabi muammolar bunga sabab bo'layotganligi aniqlandi. Jahonda taraqqiy etayotgan davlatlarning aksariyatida mehnat migrantlari kichik dehqon xo'jaliklarida vaqtinchalik, ish haqi yuqori bo'lmagan past malakali mehnat faoliyatini olib borish bilan band bo'lib qolishlari davom etmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. /Отв. ред. Зайончковская Ж.А.- М.: ИИП РАН, 2003.
2. Mehnat migratsiyasi tizimidagi vazifalarning amaliy yechimi // Xalq so'zi. 2018- yil 7-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori.
4. "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-sonli Konvensiyasi.
5. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi. 2018-yil ma'lumotlari.

6. Yarim million o'zbek ayoli xorijda ishlayapti - O'zbekistonda ularga ish topib berish mexanizmi bormi? <https://kun.uz/news/2022/04/14/yarim-million-ozbek-ayoli-xorijda-ishlayapti-ozbekistonda-ularga-ish-topib-berish-mexanizmi-bormi?> Murojaat sanasi: 5-iyun 2022-yil.
7. <https://review.uz/uz/post/mehnat-migratsiyasi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-bartaraf-etish>. Murojaat sanasi:28-dekabr 2020-yil.
8. <https://lex.uz/uz/docs/-4997972>.
9. Abduramanov X.X. Oilaning demografik rivojlanish tendensiyalarini baholash. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, (№ 00038) noyabr-dekabr, 2018-yil.11-b. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
10. Ishonxodjayev S.A. Mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy masalalari. Yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010. – B.27.
11. Qaytish migratsiyasi – xalqaro yondashuvlar va markaziy Osiyoning o'ziga xos xususiyatlari // © 2020 International Organization for Migration (IOM) – B.102.
12. Mehnat migratsiyasi va tendensiyalar // [https:// www. uzanalytics.com/ iqtisodiet/graphics/4423](https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/graphics/4423). Murojaat sanasi: 11-aprel 2021-yil.
13. <https://yuz.uz/news/senat-qomitasi-bandlik-va-mehnat-munosabatlari-vazirligi-huzuridagi-tashqi-mehnat-migratsiyasi-agentligining-axborotini-eshitdi>. Murojaat sanasi: 17-yanvar 2023-yil.
14. Ayollar bandligini oshirish yo'lida // Xalq so'zi, 2021-yil 1-iyun, №114 (7894). – B.3.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 12-avgust kuni "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 725-sonli qarori.// <https://lex.uz/docs/3903307>.